



XOLIYOR SAFAROVNING “QIYOFA” ASARIDA PSIXOLOGIZM MASALASI.

Buxoro xalqaro universiteti

1-kurs magistranti

Shodiyeva Sitora Yarash qizi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yozuvchi Xoliyor Safarovning “Qiyofa” hikoyasi va undagi qahramonlarning ruhiy holatlari, muallifning obraz yaratishdagi o‘ziga xosliklarini tahlil ostiga olish maqsad qilingan. Maqola davomida adabiyot va psixologiya bir-biriga chambarchas bog‘liq ekani o‘z tasdig‘ini topadi.

Kalit so‘zlar: psixologizm, ichki ziddiyat, qiyofa, vijdon azobi, ko‘zgu motivi, ong osti, ijtimoiy niqob, ruhiy inqiroz, o‘zlik muammosi, takrorlash majburiyati.

Adabiyot – insonshunoslik, u mohiyatan ruhiyat tarbiyachisidir. Mumtoz adabiyot bu vazifani pand-nasihathidagi asarlar orqali bajargan bo‘lsa, zamonaviy adabiyotda psixologizm inson ruhiyatini ochib berishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Zamonaviy o‘zbek adabiyotining vakili Xoliyor Safarovning bir qancha asarlarida ham inson ruhiyatining eng daqiq nuqtalariga yetib borilganini sezish qiyin emas. Jumladan, bugun tahlilga tortmoqchi bo‘lgan “Qiyofa” hikoyasi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Xoliyor Safarovning “Qiyofa” hikoyasida qahramon ichki olami, uning vijdon, o‘zlik va ijtimoiy qiyofa o‘rtasidagi ziddiyati orqali inson psixikasining murakkab dinamikasi mahorat bilan ochib beriladi. Asarda qahramonning tashqi (ijtimoiy) qiyofasi va ichki ruhiy holati o‘rtasidagi qarama-qarshilik markaziy o‘rinda turadi.

Undagi bosh qahramon ijtimoiylik jihatidan nufuzli, obro‘li shaxs sifatida tasvirlanadi:

“U – dami baland, pichog‘i yog‘ ustida, bir nomi ulug‘ tashkilotning rahbari, deputat, fan doktori...” Biroq uning ichki olamida doimiy beqarorlik va o‘z-o‘zini



inkor etish holati mavjud. Bu psixologik ziddiyat esa: “...ammo doim yuz-qo‘lini yuvar ekan ko‘zguga boqadi va beixtiyor o‘z aksiga tikilib qolib, oxirida basharasiga tuflab yuboradi...” tarzidagi kuchli ramziy unsurlar orqali ifodalanadi. Mazkur tasvir qahramonning o‘z “Men”idan begonalashganini, o‘zini qabul qila olmaslik darajasigacha yetgan ichki parchalanishni anglatadi.

Muallif asardagi ko‘zgu motivini ichki psixologizmning markaziy ramzi sifatida tasvirlaydi. Shu o‘rinda motiv sifatida nega aynan “ko‘zgu” tanlanganiga e’tibor qaratish lozim. Ko‘zgu – bu o‘zlikni anglash, ichki haqiqat bilan yuzlashish vositasidir. Qahramon esa aynan shu haqiqatdan qochadi, o‘z aksini qabul qila olmaydi. Bu esa uning ichki “Men”i bilan tashqi olam o‘rtasidagi uzilishni ifodalaydi. Qolaversa, o‘zbek adabiyotida ko‘zgu motivi qadimdan o‘zlikni anglash, haqiqatni ko‘rish timsoli sifatida talqin qilib kelinadi.

Bundan tashqari, hikoyadagi psixologik konfliktning asosi – vijdon azobi hisoblanadi. Qahramon bolaligidagi bir voqeani eslab, ichki inqirozga tushadi:

“U ilk marta maktab yoshida, otasining cho‘ntagidan yashirincha pul olib, so‘roqqa tutilganida qo‘rqqanidan ‘O‘lay agar olganim yo‘q’ deb qasam ichib yuborgan va shu bilan osongina qutilib ketgan, ammo o‘sha kuni kechqurun yuzini arta-arta oynaga qaraganida ko‘zlari uni ta‘qib etib, g‘oyibdan ‘Vijdonsiz’ degan bir ovoz eshitilgandek bo‘ldi.”

Bu ichki ovoz uning ong ostida shakllangan va hayotidagi har qanday xato, ijtimoiy va shaxsiy muammolar eng avvalo shu ovoz bilan bog‘lanadi. Bu esa bevosita Sigmund Freud nazariyasidagi “vijdon instansiyasi” (super-ego) tushunchasini yodga soladi. Demak, qahramonning ichki kurashi aslida ong osti bilan ong o‘rtasidagi ziddiyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Qolaversa, qahramon nutqi va harakatlari o‘rtasidagi muvozanatning buzilganligi ham unda psixologik barqarorlik mavjud emasligini ko‘rsatadi. Qahramon ayoli bilan bo‘lgan suhbatda “Xalqning roziligi uchun harakat qilamiz”,



deydi, ammo bu gap uning ichki haqiqatiga mutlaqo zid. U jamiyatda o‘zini qanchalik ideal qilib ko‘rsatmasin, aslida o‘z qiyofasini ham qabul qila olmaydigan darajada ichki bo‘shliqqa ega. Bu esa ma’naviy inqiroz belgisi sifatida talqin etiladi.

Asardagi eng kuchli burilish – ko‘zguning sinishi, aniqrog‘i, sindirilishidir:

“...ko‘zgudagi aksiga bir musht tushirdi. Ko‘zgu chil-chil sinib, yerga duvva to‘kildi. Zarralari atrofga sochildi. Ko‘ziga ham kirgan ekan...”

Bu parcha qahramonning o‘ziga qarshi chiqishi, ruhiy olamining parchalanishi va psixologik krizis holatining eng yuqori nuqtasini ifodalaydi. Ko‘zguning sinishi – bu o‘zlikning sinishi, identitetning parchalanishidir.

Muallifning hikoyada *“Odamzod vaziyatning quli”* degan jumlaning keltirishi bir qarashda qahramonni oqlashga urinayotgandek tuyuladi. Biroq chuqurroq qaralganda, bu fikr orqali aksincha, inson vaziyatga taslim bo‘lmasligi kerakligi ilgari suriladi.

E’tibor qaratilsa, asar qahramonining ismi hech bir o‘rinda tilga olinmaydi. Bu esa obrazni umumlashtirish, uni tipiklashtirish vazifasini bajaradi. Bu jihatni Chingiz Aytmatovning *“Oq kema”* asaridagi bola obrazi bilan qiyoslash mumkin. Demak, bu qahramon – har qanday inson bo‘lishi mumkin.

Asar oxirida qahramonning ruhiy holatidagi o‘zgarish yanada chuqurlashadi:

“Avvallari egardan tushgisi kelmay, majlislarda oldingi qatorda o‘tirardi. Bora-bora orqaroqqa surildi, keyin ikkala qulog‘iga ham paxta tiqib oladigan odat chiqardi”¹.

Bu holat qahramonning tashqi dunyodan, balki ichki ovozlardan ham qochishga urinayotganini ko‘rsatadi. Biroq u bu holatdan qutula olmaydi.

Asar yakuni esa yana bir bor psixologik qonuniyatni tasdiqlaydi:

¹ X.Safarov : *“Onamning yolg‘onlari”*, T.: *“Ochun”*, 2024 y.



“Hozir ko‘cha-kuyda ham shunday yuradi... Kechqurun uyga qaytganida yuz-qo‘lini yuvayotib, beixtiyor ko‘zguna boqadi va o‘z aksiga tikilib turib, yana basharasiga tuflab yuboradi...”

Bu holat Zigmund Freyd ta‘riflagan “takrorlash majburiyati” ni eslatadi. Ya‘ni inson o‘z travmasini qayta-qayta boshdan kechirish orqali undan qutulmoqchi bo‘ladi, biroq aksincha, unga yanada chuqurroq botib boradi.

Xulosa qilib aytganda, Xoliyor Safarovning “Qiyofa” hikoyasi zamonaviy o‘zbek nasrida psixologizmning yuksak namunalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda inson ruhiyatining eng murakkab, ko‘zga ko‘rinmas, ammo ta‘sir kuchi nihoyatda chuqur qatlamlari badiiy tahlil qilinadi. Muallif qahramonning tashqi ijtimoiy qiyofasi bilan uning ichki “Men”i o‘rtasidagi keskin nomutanosiblikni ochib berish orqali zamonaviy insonning ma‘naviy inqirozini umumlashtiradi.

Hikoya tahlili shuni ko‘rsatadiki, qahramon obrazi individual emas, balki umumlashma xarakterga ega bo‘lib, unda har qanday jamiyat vakiliga xos bo‘lgan ichki ziddiyatlar mujassam. Tashqi jihatdan muvaffaqiyat, obro‘ va mavqe timsoli bo‘lgan shaxs ichki olamida vijdon azobi, o‘zlikni inkor etish va ruhiy beqarorlik bilan yashaydi. Bu esa muallif tomonidan ilgari surilgan asosiy g‘oyalardan biri – insonning haqiqiy qiyofasi uning ijtimoiy maqomida emas, balki ichki dunyosida namoyon bo‘lishidir.

Ayniqsa, ko‘zgu motivi orqali yaratilgan psixologik tizim asarning badiiy-falsafiy qatlamini yanada chuqurlashtiradi. Ko‘zgu bu yerda oddiy predmet emas, balki o‘zlik bilan yuzlashish, haqiqatni tan olish yoki undan qochish ramzi sifatida xizmat qiladi. Qahramonning o‘z aksiga tuflashi – bu o‘zini inkor etishning eng keskin, hatto destruktiv shakli bo‘lib, uning ichki parchalanish darajasini yaqqol ko‘rsatadi.

Shuningdek, asarda vijdon fenomeni markaziy psixologik kategoriya sifatida talqin qilinadi. Bolalikda sodir etilgan kichik bir yolg‘onning butun hayot davomida



ong ostida yashab, shaxs ruhiyatini yemirib borishi orqali muallif inson psixikasining naqadar murakkab va izchil tizim ekanini ochib beradi. Bu jihat Sigmund Freud ta'limotidagi ong osti va vijdon mexanizmlari bilan hamohang tarzda namoyon bo'ladi. Asar yakunidagi takrorlanuvchi harakat – ya'ni qahramonning yana va yana ko'zgu qarshisiga kelib, o'z aksiga nafrat bilan munosabat bildirish holati – insonning o'z ruhiy jarohatlaridan qochib qutula olmasligini anglatadi. Bu esa psixologik jihatdan “takrorlash majburiyati” hodisasining badiiy ifodasidir. Demak, qahramon o'z fojeasidan chiqish yo'lini topa olmaydi, aksincha, o'sha fojeaning doimiy mahbusiga aylanadi.

Umuman olganda, “Qiyofa” hikoyasi orqali muallif zamonaviy insonning ikkiyuzlamachi ijtimoiy qiyofasi, ichki bo'shlig'i va ma'naviy iztiroblarini chuqur badiiy umumlashtiradi. Asar o'quvchini nafaqat voqeani kuzatishga, balki o'z “Men”i bilan yuzlashishga, ichki haqiqatni tan olishga undaydi. Shu jihatdan, hikoya faqat badiiy matn emas, balki inson ruhiyatini anglashga chorlovchi falsafiy-psixologik manifest sifatida ham qimmatlidir.

Natijada, Xoliyor Safarov “Qiyofa” hikoyasi orqali insonning haqiqiy qiyofasi tashqi niqoblarda emas, balki uning vijdoni va ichki dunyosida yashirin ekanini teran badiiy haqiqat darajasida ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B. Karim : “Ruhiyat alifbosi”(Adabiy -tanqidiy maqolalar),G'afur G'ulom,T-2018 y
2. S.Sodiq :”Ijodning o'ttiz lahzasi” : (Adabiy -tanqidiy maqolalar),Sharq,T-2005 y
3. X.Safarov : “Onamning yolg'onlari” ,”Ochun”,T-2024 y
- 4.Internet saytlari